

CHANGSIZLANTIRISH DARAJASINI NAZARIY O'RGANISH

D.U.Turg'unov
A.B.Egamberdiyev

Annotatsiya: Paxta tozalash zavodlarida chansizlantirish darajasini o'rganish va tahlil qilish.

Kalit so'zlar: havo, chang, ishlab chiqarish, namlik,

KIRISH

Bugungi kunda PTK larning ishlab chiqarish quvvati ko'proq mahsulot sifatiga qarab belgilanmoqda. Bunda ishlab chiqarish bo'limlari aholi yashash hududlaridan olisroq bo'lgan hududlarga joylashtirishga asoslangan loyihalar o'zini har jihatdan oqlab kelmoqda. Aholi yashash hududlarida joylashtirilgan PTK har doim aholi tomonidan turli noroziliklar kelib chiqmoqda. Chunki ushbu korxonalar chang so'ndirish uskunalari optimal holatda ishlamasligi ortida atmosferaga turli chang zarralari uchib chiqmoqda.

Havoda uchib yuruvchi mayda chang zarralari agrozol deb ataladi. Ilg'ash mumkin bo'lgan ya'ni qatlam ko'rinishida cho'kib qolgan chang zarrasi esa ayerogel deb ataladi. Havo bilan chang aralashmasi birgalikda ayerodinamik sistema hisoblanib, bu yerda havo dispersion muhitni, qattiq organik zarralar esa dispers fazalardan tashkil topgan.

Inson burun bo'shlig'i orqali o'pka qismiga to'g'ridan-to'g'ri kirib ketuvchi changlar mikrochanglar deyiladi. Ularning o'lchami 10 mikrometrdan kichik bo'ladi. 10 mikrometrdan katta changlar inson burun bo'shlig'i shilliq qavati bitib o'pkaga kirib ketishini oldini oluvchi changlar hisoblanadi. U ma'lum sharoitlarda inson organizmiga salbiy ta'sir o'tkazadi hamda inson organizmiga doim ta'sir etib turadi.

Paxtani dastlabki ishlash korxonalarida atrofida uchraydigan changlar turlari quyidagilar:

1. Fibrogen
2. Zaxarli
3. Allergenli
4. Konserrogen
5. Qichituvchi
6. Ionlantruvchi

Changlarning kelib chiqish omillari bo'yicha quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

7. Organik
8. Noorganik

Organik changlar asosan tirik organizmlardan hayvonlar va o'simliklar tosh turli holatlarda ajratib chiqadi.

Tuproqlarning zarralari, turli minerallar va metallarning korroziyaga uchrashi yoki ishqalanishi natijasida ajralib chiqadi.

Ishlab chiqarish bo'limlarida ko'zimiz bilan ko'rishimiz mumkin bo'lgan changlar kattaligi 10 mm dan katta bo'ladi. Kattaligi 10 mm dan 0.25 mm gacha bo'lgan changlar mikroskopik changlar deyiladi.

Kattaligi 0.25 mm dan kichik bo'lgan chang zarralari submikroskopik changlar deyiladi.

Ishlab chiqarish bo'limlarida changni so'ndiruvchi changli havo bunkerlari va siklonlarning soz holatda ishlamasligi ortidan korxonalar ishchilarida changli havodan nafas olish ortidan bronxit umumiy o'pka yulidan zararlanishi yuzaga kelishi mumkin.

Aksariyat korxonalar ishchilarida qo'shimcha kasalliklarni uyg'otish ortidan pnevmoniya, burun sohasi yulining turli darajada zararlanishi yoki sil, o'pka raklari kabi kasalliklar kelib chiqishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan PTK larda changsizlantirish masalalari doimiy tarzda dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Ishlab chiqarish asosan kuz qish mavsumiga to'g'ri kelganligi sababli tajribalar havo harorati 00Cda va 100C, 200C va 300C da tekshirib ko'riladi.

Unga ko'ra 00 C da havoning nisbiy namligi $[(1m)]^3$ da 5 gr ni tashkil etadi deb olinadi.

Temperatura ortgani sari havo tarkibidagi nam havo miqdori ortdi.

Mavjud adabiyotlarda quyidagi qonuniyat o'z aksini doim toppish shart deb keltirilgan.

Ya'ni 00 C – 5 gr-100 %

100 C-9 gr- 100 %

200 C- 17 gr-100 %

300 C-30 gr-100%

Sig'dira olish imkoniyatiga ega.

Changsizlantirish binosidan chiqib ketayotgan chang miqdori va havo tarkibidagi mayda chang zarrasi miqdori bino bo'ylab nam bo'lgan suv bug'ining miqdoriga ham bog'liq. Nisbiy namlik kamayishi bu atmosferaga chiqayotgan changli havo miqdorini ortishiga olib keladi. Shu maqsadda chang so'ndirish binosini namligini ushlab turish orqali undan chiqib ketayotgan chang zarrasini ushlab qolish dolzarb masala hisoblanadi. Changli havoni so'ndirish binosi ichidagi suv bug'i namga to'yinganlik darajasini tekshirish. Namligi talab etilgan taqdirda sun'iy namlantirishni yulga qo'yish; Ushbu jarayonlarda changsizlantirishda namlikni ortib ketishini oldini olish kerak, chunki ortiqcha namlik so'ndirilayotgan changli havoni loyga aylantirib qo'yishi bu esa changli chiqindilarni tashib olib chiqishiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sanoat chikindilarini tozalash texnologiyasi asoslari. Musayev M (2011).
2. Texnologik jarayonlarni loyihalash. Babadjanov.M.A
3. Usmonov, J. M., Shakirov, S. M., Ubaydullayev, M. M., & Parmonov, S. O. (2021). Aluminum-based composition materials for processing aluminum scrap. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 590-595.

4.Ubaydullayev, M. M., Shakirov, Sh. M., Usmonov, J. S., & Parmonov, S. T. (2021). Elektr dvigatellarda qo'llaniladigan uglegrafitli materiallarni ishlab chiqarish texnologiyasini taxlil qilish. Kompozision materiallar", Toshkent sh, 103-107.